



UDK: 1(045)(575.1)

*Xabiba N. OBLMURADOVA,*

*PhD, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*

*E-mail: h.oblomuradova@tsul.uz, ORCID: 0000-0002-6622-8046*

*TDIU professori, f.f.d. I.Saifnazarov taqrizi asosida*

### MODERN TRANSFORMATION OF INTERNET CULTURE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The article examines the socio-philosophical aspects of the transformation of Internet culture in the context of the development of the information society. From a philosophical perspective, it analyzes virtual reality in cyberspace, the impact of information flows on human consciousness and value systems, as well as issues related to ensuring the cognitive security of young people and the development of their information hygiene in this process.

**Keywords:** internet culture, transformation, virtual reality, public consciousness, information hygiene, logical thinking, critical thinking.

### СОВРЕМЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНТЕРНЕТ-КУЛЬТУРЫ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье рассматриваются социально-философские аспекты трансформации интернет-культуры в условиях развития информационного общества. С философской точки зрения анализируются виртуальная реальность в сетевом пространстве, влияние информационных потоков на сознание человека и систему его ценностей, а также вопросы обеспечения когнитивной безопасности и развития информационной гигиены молодежи в данном процессе.

**Ключевые слова:** интернет-культура, трансформация, виртуальная реальность, общественное сознание, информационная гигиена, логическое мышление, критическое мышление.

### INTERNET MADANIYATINING ZAMONAVIY TRANSFORMATSIIYASI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada axborotlashgan jamiyat rivojlanishi sharoitida internet madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritilgan. Tarmoqli makondagi virtual borliq, axborot oqimlarining inson ongi va qadriyatlar tizimiga ta'siri hamda mazkur jarayonda yoshlarning kognitiv xavfsizligi va axborot gigiyenasini ta'minlash masalalari falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

**Kalit so'zlari:** internet madaniyati, transformatsiya, virtual borliq, ijtimoiy ong, axborot gigiyenasi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tafakkur.

**Kirish.** XXI asning birinchi choragiga kelib, virtual reallik insoniyatning kundalik hayoti va dunyoqarashini belgilovchi yangi ijtimoiy-falsafiy muhitga aylandi. Bugungi kunda internet shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki o'zining submadaniy kodi, tili va xulq-atvor mezonlariga ega global sotsiomadaniy makondir.

Raqamli makonning shiddatli rivojlanishi jamiyat ongi va qadriyatlar tizimining transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Virtualizatsiya jarayoni insonning nafaqat muloqot shakllarini, balki uning gnoseologik tabiatini va voqelikni idrok etish mexanizmlarini ham o'zgartirmoqda. Xususan, yoshlar auditoriyasida tizimli mantiqiy tafakkur o'rnini parchalangan va vizual kontentga asoslangan "klip fikrlash" egallayotgani jiddiy ijtimoiy-antropologik xavflarni yuzaga keltiryapti. Axborot oqimlarining bunday manipulyativ ta'siri shaxs va jamiyat hayotida kognitiv xavfsizlik hamda axborot gigiyenasi masalalarini birinchi o'ringa olib chiqmoqda.

Shu sababli, internet madaniyati evolyutsiyasini va uning ijtimoiy ongga ta'sirini ijtimoiy falsafa prizmasi orqali konseptual tadqiq etish zamonaviy ilm-fanning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Internet madaniyati va axborotlashgan jamiyat muammolari global miqyosda turli ijtimoiy-falsafiy yo'nalishlar doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, postmodernistik paradigma vakili J.Bodriyyar simulyakrlar nazariyasi orqali raqamli makon

hamda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan giperreallik muqarrar ravishda obyektiv voqelikni siqib chiqarishini asoslab bergan [1]. O'z navbatida, M.Kastels internet madaniyati an'anaviy sotsial strukturalarni parchalab, virtual qiziqish hamda qadriyatlarga asoslangan "tarmoqli identifikatsiya" fenomenini shakllantirishini ko'rsatadi [2]. Texnologiyalarning kognitiv va antropologik ta'sirini o'rgangan M.Maklyuen hamda N.Karr kabi mutafakkirlar raqamli muhit inson ongi va neyroplastikligini yuzaki axborot iste'moliga moslashtirishini, bu esa chuqur mantiqiy mushohada qobiliyatini susaytirib, "klip-tafakkur" sindromini keltirib chiqarishini isbotlaganlar.

O'zbek olimlaridan I.Saifnazarov, Q.Nazarov, B.To'ychiyev, A.Qodirov, Sh.Madayeva va A.Tulyayevlar axborotlashgan sotsium muammolarini milliy mentalitet evolyutsiyasi, yoshlar ijtimoiylashuvi hamda ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlik kontekstida tadqiq etmoqdalar. Biroq, raqamli makondagi transformatsiyalarni falsafiy ontologiya darajasida umumlashtirish hamda virtual borliq sharoitida ijtimoiy subyekt onginu muhofaza qiluvchi "axborot gigiyenasi" va "kognitiv xavfsizlik" tushunchalarini ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan chuqurroq tadqiq etish va tizimga solish zarurati dolzarbligicha qolmoqda [3].

**Tahlil va natijalar.** Axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida virtual makon inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ilgari internet asosan axborot almashish va muloqot vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u

ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va shaxsning o'zini namoyon qilish maydoniga aylanmoqda. Natijada real va virtual hayot o'rtasidagi chegaralar tobora yo'qolib, ijtimoiy falsafada "gibrid reallik" deb ataluvchi yangi ijtimoiy muhit shakllanmoqda.

Ushbu jarayonning muhim jihati shundaki, insonning jamiyatdagi o'rni va nufuzini baholash mezonlari o'zgarimoqda. An'anaviy jamiyatda shaxsning mavqei uning bilimi, mehnati, kasbiy mahorati va ma'naviy fazilatlarini orqali belgilangan bo'lsa, raqamli jamiyatda bu vazifani ko'p hollarda virtual ko'rsatkichlar bajarimoqda. Masalan, layklar soni, obunachilar miqdori, trend yoki kontentning ommalashuv darajasi insonning ijtimoiy ahamiyatini baholash vositasiga aylanib bormoqda.

Bu holat ijtimoiy qadriyatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, insonning ichki salohiyati va haqiqiy yutuqlaridan ko'ra tashqi ko'rinish va o'zini namoyish etish usuli muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Boshqacha aytganda, mazmundan ko'ra shakl ustun kelmoqda. Bu esa jamiyatda chuqur bilim va tajribadan ko'ra vizual jozibadorlik yuqori baholanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda haqiqiy voqelik o'rni ko'pincha uning raqamli obrazi egallamoqda. Insonlar o'z hayotini qanday yashashdan ko'ra, uni boshqalarga qanday ko'rsatish haqida ko'proq o'ylay boshlamoqda. Bu jarayon ijtimoiy falsafada simulyaklashuv deb ataladi, ya'ni voqelikning o'zi emas, balki uning sun'iy yaratilgan timsoli muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, media makonda mashhurlik ijtimoiy baholashning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda. Insonning jamiyat uchun qanchalik foyda keltirayotgani emas, balki uning internetda qay darajada e'tibor qozonayotgani muhim deb qabul qilinishi mumkin. Bu holat esa ayrim hollarda yuzaklikning kuchayishiga, madaniy va ma'naviy mezonlarning soddalashuviga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, internet madaniyati transformatsiyasi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-falsafiy jarayon ham hisoblanadi. U insonning o'zligini anglashi, ijtimoiy munosabatlar tizimi va qadriyatlar iyerarxiyasiga ta'sir ko'rsatib, raqamli jamiyatning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Shuning uchun zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri virtual imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga, haqiqiy ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolishdan iboratdir.

Shu bilan birga, axborot oqimining cheksizligi va o'ta tezkorligi tufayli inson ongi misli ko'rilmagan axborot stressi muhitida yashashga majbur bo'lmoqda. Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan yondashganda, axborot iste'moli madaniyatida "axborot gigiyenasi" prinsiplariga rioya qilmaslik shaxsning kognitiv xavfsizligini to'g'ridan-to'g'ri xavf ostiga qo'yadi.

Raqamli makondagi manipulyativ kontentlar, maqsadli yo'naltirilgan feyk xabarlar hamda sun'iy intellekt algoritmlari asosida yuzaga keladigan "filtr pufakchalari" individual va ijtimoiy ongni parchalash xavfini tug'dirmoqda. Natijada, ayniqsa yoshlar o'rtasida axborotni tanqidiy tahlil va faktlarni tekshirmasdan qabul qilish, ijtimoiy hodisalarga ratsional emas, balki tarmoqdagi hissiy to'lqinlar ta'sirida yuzaki munosabat bildirish tendensiyasi ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning umumiy mafkuraviy himoya tizimi hamda kognitiv xavfsizligini zaiflashtiruvchi asosiy omilga aylanmoqda [6, 7, 8].

Internet makonining kengayishi va axborot oqimlarining tezlashuvi insonning bilish jarayonlari hamda fikrlash madaniyatida sifat jihatidan yangi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli muhitda axborotning asosan qisqa matnlar, tasvirlar va videokontent shaklida tarqalishi inson ongining voqelikni qabul qilish usuliga ta'sir ko'rsatib,

diqqatning parchalanishi va tahliliy fikrlashning susayishiga olib kelmoqda. Natijada inson murakkab ijtimoiy voqea va hodisalarni chuqur tahlil qilishdan ko'ra, ularni tezkor va yuzaki idrok etishga moyil bo'lib bormoqda.

Mazkur holat ijtimoiy falsafada "klip-tafakkur" fenomeni orqali izohlanadi. Uning mohiyati shundaki, shaxs axborotni mantiqiy va izchil bog'langan tizim sifatida emas, balki bir-biridan uzilgan va mustaqil axborot fragmentlari shaklida qabul qiladi. Bunday sharoitda voqelikning sababiy bog'lanishlarini anglash, voqealarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish imkoniyatlari cheklanadi. Shu bois klip-tafakkur insonning ratsional bilish qobiliyatini zaiflashtirib, emotsional ta'sirlarga nisbatan moyilligini kuchaytiradi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bu jarayonning yana bir muhim oqibati axborotni baholash mezonlarining o'zgarishida namoyon bo'ladi. An'anaviy madaniyatda bilim va axborotning haqqoniyligi uning manbasi, dalillanganligi va mantiqiy asoslanganligi orqali belgilangan bo'lsa, raqamli muhitda axborotning ommalashuv darajasi, emotsional ta'sirchanligi va vizual jozibadorligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jamiyatda haqiqat mezonlarining nisbiylashuviga va tanqidiy tafakkurning zaiflashishiga sabab bo'ladi.

Natijada mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan faol ijtimoiy subyekt o'rni axborot oqimlarining passiv iste'molchisi egallashi mumkin. Bunday subyekt tashqi axborot ta'sirlariga, mafkuraviy manipulyatsiyalarga va turli dezinformatsiya texnologiyalariga nisbatan ancha zaif bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, klip-tafakkurning kengayishi nafaqat shaxsning intellektual rivojlanishiga, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi va kognitiv xavfsizligiga ham tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot manbalarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda mediasavodxonlikni yuksaltirish ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning intellektual mustaqilligini ta'minlash bilan birga, jamiyatning ma'naviy va kognitiv xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Yangi O'zbekistonda yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini oshirish hamda kognitiv xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Birinchidan, bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lgan fakt-cheking ya'ni noto'g'ri axborotdan to'g'risini ajratib olish usullari haqida kichik hajmli, ommabop risolalar tayyorlab tarqatish;

Ikkinchidan, TV kanallarida bir haftada bir marta efirga chiqadigan "Fakt-Cheking" ko'rsatuvini tayyorlash, unda hafta mobaynida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan xabarlarini tahlil qilish va aniq faktlar, dalillar asosida muayyan xabarni yolg'onligini isbotlab berish. Bu ko'rsatuv uchun eng mahoratli, bilimli, tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan jurnalist va blogerlarni taklif qilish lozim;

Uchinchidan, ta'lim muassasalari dasturlariga "Media savodxonlik" fanini kiritish. Unda yoshlar sun'iy intellekt va algoritmik manipulyatsiyalardan himoyalani, internetdagi xabar va ma'lumotlarni tahlil qilish, aniq faktlar va dalillar asosida tanqidiy baholash, feyk kontentni aniqlash hamda kiberhujumlardan himoyalani ko'nikmalarini egallaydi;

To'rtinchidan, o'yinlar va OAVgi kontentni yosh toifasiga mos belgilar bilan ajratish. Masalan, ranglar yoki maxsus belgilar orqali yoshlar uchun tavsiya etilgan yoki cheklangan materiallarni aniqlash tizimini joriy etish;

Beshinchidan, o'yinlar va mediakontentlarning zo'rvonlik darajasini cheklash, yoshlarga mos bo'lmagan

(agressiv, qonli va buzg‘unchilikka chorlovchi) materiallarning foydalanishini kamaytirish uchun kontentni filtratsiya qilish va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;

Oltinchidan, yoshlar auditoriyasida klip-tafakkur va axborot yuzakiligiga qarshi samarali kurashish maqsadida,

milliy raqamli makonda fundamental adabiyotlar, ilmiy-falsafiy konsepsiyalar hamda milliy qadriyatlarni qisqa vizual formatda, biroq chuqur mantiqiy mazmunda taqdim etuvchi intellektual mediasavodxonlik loyihalarini tizimli qo‘llab-quvvatlash lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции / Пер. с фр. А. Качалова. – М.: Издательский дом «ПОСТУМ», 2015. – 240 с.
2. Castells M. The rise of the network society. – John wiley & sons, 2011. – 650 p.
3. Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 11.
4. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Q.Nazarov va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 380 b.
5. Туляев А. Виртуал оламнинг ахлоқий муаммолари (фалсафий таҳлил) // автореф. PhD дисс. – Т.: ЎзМУ. 2021. – Б. 50.
6. Таджибаева Д. (2017). Обеспечение национальной безопасности в информационной сфере. Review of law sciences, 1(1), 56-61.
7. Tadjibaeva D. (2017). Ensuring national security in the information sphere. Review of law sciences, 1(1), 8.
8. Tojiboeva D. (2021). “Mass culture” as the most dangerous weapon of ideological pressure. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 1106-1111.